

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**

**“TASDIQLAYMAN”**

G.Sh.Raxsiyeva

2025-yil “*20*”




**ILMIY TADQIQOT METODOLOGIYASI  
FANINING O‘QUV DASTURI**

<b>Bilim sohasi:</b>	200 000 – San‘at va gumanitar fanlar
<b>Ta‘lim sohasi:</b>	220 000 – Gumanitar fanlar (tillardan tashqari)
<b>Mutaxassislik:</b>	70220502 – Sharq falsafasi va madaniyat 70220502 – Tasavvuf germenevtikasi


“Sharq sivilizatsiyasi va falsafa”  
fakulteti dekani:

  
Askarov M.M.

“Sharq falsafasi va germenevtika”  
kafedrası mudiri:

  
Sulaymonov J.B.

ARM boshlig‘i

  
Yuldasheva M.M.

<b>Fan/modul kodi</b> ITM1104		<b>O'quv yili</b> 2025-2026	<b>Semestr</b> 1	<b>ECTS - Kreditlar</b> 4	
<b>Fan/modul turi</b> Majburiy		<b>Ta'lim tili</b> O'zbek		<b>Haftadagi dars soatlari</b> 4	
1.	<b>Fanning nomi</b>	<b>Auditoriya mashg'ulotlari (soat)</b>	<b>Mustaqil ta'lim (soat)</b>	<b>Jami yuklama (soat)</b>	
	<b>Ilmiy tadqiqot metodologiyasi</b>	48	72	120	
2.	<b>I. Fanlarning mazmuni</b>  <b>Fanni o'qitishdan maqsad</b> – magistrantlarga ilmiy tadqiqotni tashkil etish, uning maqsadi va vazifalari, usullarini to'g'ri tanlash; falsafiy metodologiyaning mazmuni va mohiyati bo'yicha nazariy bilimlarni o'rgatish va amaliyotda tatbiq etish konikmalarini shakllantirishdan iborat. <b>Fanning vazifasi</b> – ilmiy tadqiqot ishini tayyorlash jarayonida muammoni to'g'ri qo'yish, uning yechimini topish maqsadida ilmiy bilish shakllari va usullarini aniqlashning; falsafiy matn bilan ishlashda germeneytik va komparativistik metodlardan foydalanishning, shuningdek olimning ijtimoiy va kasbiy mas'uliyatining ahamiyatini ochib berishga qaratilgan. <b>Xorij tajribasiga muvofiqligi:</b> Mazkur fan dasturi xalqaro tan olingan reytinglarda birinchi top 300 talik ro'yxatga kiruvchi ) Leiden universiteti (ARWU 111) xorijiy tajribasini inobatga olgan holda takomillashtirildi. <a href="https://studiegids.universiteitleiden.nl/en/studies/9708/philosophy-global-and-comparative-perspectives#tab-1">https://studiegids.universiteitleiden.nl/en/studies/9708/philosophy-global-and-comparative-perspectives#tab-1</a>  <b>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</b> <b>III. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</b> <b>1-mavzu. Fan bilishning maxsus shakli</b>  Fan obyektiv bilimlar tizimi sifatida. Obyektivlik ilmiy bilim ideali va uning asosiy mezon. Fan rivojining qonuniyatlari. Ilmiy faoliyatning o'ziga xosligi. Fandagi izchillik, ishonchlilik, asoslilik, isbotlilik. Sababiyat va qonuniylik fanning barcha jabhalarida hukm suruvchi fundamental konstanta. Ilmiy tadqiqotlar tasnifi. Fundamental va amaliy tadqiqotlar. Innovasion				

tadqiqotlar. Fan va ishlab chiqarishning aloqadorligi, vorisiylik va novatorlik.

## **2-mavzu. Ilmiy bilim va bilish faoliyati ijtimoiy-tarixiy hodisa va madaniyat elementi sifatida**

Bilimning ijtimoiy-madaniy shart-sharoitlarga bog'liqligi. Ilmdagi qadriyatlar ilmiy bilimlar ijtimoiy-madaniy shart-sharoitining namoyon bo'lishi sifatida. Ilmiy bilishda qadriyatlar va tanlov masalasi.

Fanlarning tasnifi. Ijtimoiy, texnikaviy, tabiiy, fundamental, amaliy, nazariy va eksperimental fanlarning o'zaro aloqasi va farqi.

## **3-mavzu. Kognitiv faoliyatning tuzilishi, uning ilmiy bilimdagi xususiyatlari. Ilmiy tadqiqotda ratsionallik va irratsionallik**

Reprezentatsiya ilmiy bilimda kognitiv operatsiya sifatida. Tasniflash bilim faoliyati umumiy tartibi sifatida. Talqin qilish - ilmiy usuli va bilimlarning asosiy xususiyati. Konvensiya (kelishuv) - bilim va muloqotning universal tartibi, uning ilmiy bilimdagi roli.

Ilmiy tadqiqotda ratsionallik va irratsionallikning namoyon bo'lishi. Intuisiyaning mohiyatiga doir falsafiy va psixologik yondashuvlar. A.Puankarening «Mantiq isbotlaydi, intuisiya – yaratadi» degan fikrining mohiyati. Ijod va uning turlari. Ilmiy ijod. Intuisiya va ijodning ilmiy faoliyatda tutgan o'rni.

## **4-mavzu. Ilmiy bilim shakllari va ularning ilmiy tadqiqot jarayonidagi ahamiyati.**

Ilmiy bilim shakllari: kategoriya, qonun, g'oya, muammo dalil, gipoteza (faraz), ilmiy nazariya.

Ilmiy tadqiqotning boshlanishi. Ilmiy muammo va dalil. Muammoli vaziyatning xususiyatlari. K. Popper muammoning o'rni va roli haqida. Gumanitar bilimlarda muammolarni shakllantirishning xususiyatlari. Bilimni muammolashtirish va savol-javob protseduralari.

Ilmiy faraz tushunchasi. Ilmiy faraz shartlari. Gipotezani tasdiqlash yoki inkor etishda dalillarning o'rni. Ilmiy tadqiqotda nazariyaning o'rni. Ilmiy nazariya tushunchasi va tuzilmasi. Ilmiy nazariyaning asosiy vazifalari. Ilmiy nazariyani shakllantirishda induktiv, deduktiv va deduktiv-gipotetik bilish usullarining ahamiyati. Ilmiy nazariyani shakllantirishning asosiy mezonlari.

Ilmiy bashorat va prognoz.

### **5-mavzu. Ilmiy bilim darajalari, usullari va tamoyillari**

Metodologiya, ilmiy tadqiqot metodologiyasi tushunchalari. Ilmiy bilimning empirik va nazariy darajalari. Empirik darajadagi bilim shakllari va usullari. Empirik darajaning bilish usullari va shakllari: obyektни ajratish va o'rganish, bilimlarni qayta ishlash va tizimlashtirish.

Nazariy darajadagi bilim usullari va shakllari. Ideallashtirish obyektни qurish va tadqiq qilish usullari. Ilmiy bilimning asosiy tamoyillari.

### **6-mavzu. Falsafiy hermenevtika**

Germenevtik g'oyalarning rivojlantirish tarixi. V.Diltey va falsafiy hermenevtikaning boshlanishi. E. Gusserl, M. Heidegger, H-G.Gadamer hermenevtikasi. Y. Habermas va K. O. Apelning X. G. Gadamer bilan baxs-munozarasi. P. Rikerning metodolgik sintezi.

Ilmiy tadqiqotda tushunish va tushuntirishning ahamiyati. Tushunish turlari, tiplari va darajalari. Tushunishning davriylik va hermenevtik doira tamoyili. Simvol tushunchasi va unda ma'noni ifodalash. Simvollarning shakllari. Dialog og'zaki matnni tushunish vositasi. Til tushunish vositasi. Fan tili va uni tushunishga oqilona yondashuv. Tushuntirishning deduktiv-nomologik, teleologik, intensional va oqilona turlari. Tushuntirish va tushunishning o'zaro nisbati.

Bilimda makon, vaqt, xronotop. «Ma'no» tushunchasining talqini. Matn ma'nosining asosiy jihatlari. Yozma va og'zaki matn ma'nosini tushunishning ilmiy faoliyatdagi ahamiyati. Matnning yashirin ma'nosini tushunishning ilmiy tadqiqot uchun zarurati. Falsafiy matn va boshqa matn turlari (badiiy, diniy, ilmiy) o'rtasidagi farq. Falsafiy matn mavzusi. Falsafiy matnni aniqlash.

### **7-mavzu. Tizimli yondashuv va sinergetika - fan metodologiyasining yangi paradigmalari**

Zamonaviy fan metodologiyasida tizimli yondashuv. Tizim va tizimlilik, tizimli uslub tushunchalari. Ilmiy tadqiqotda tizimli yondashuvning ahamiyati. Tizim yondashuvda farazni isbotlash yoki rad etish.

Sinergetika yangi paradigma sifatida: o'z-o'zini tashkil qilish, ochiq tizimlar, chiziqlilik. Olamni ilmiy bilishda dialektik yondoshuvning ahamiyati.

## **8-mavzu. Ilmiy tadqiqotda innovatsiya va novatsiya. Fanda fanlararo va transdisiplinar tadqiqotlar.**

Innovatsiya tushunchasi va uning tahlili. Innovatsiya ilmiy-tadqiqot faoliyatining mavjud shakl va usullarini yangilashga, ularni amalga oshirish uchun yangi maqsad va vositalar yaratishga qaratilgan paradigmal faoliyat sifatida. Innovatsiya jarayoning uch komponenti.

Novatsiyalarning o'ziga xos xususiyatlari. Ilmiy-tadqiqot faoliyatiga xos bo'lgan novatsiyalar. Kashfiyot, ixtiro tushunchalarining innovatsion xarakteri. Ilmiy kashfiyotlar.

Fanda fanlararo tadqiqotlarning ahamiyati. Kross-distsiplinar tadqiqotlar.

Kross-distsiplinar tadqiqotlardagi murakkab muammolarni bir fan doirasida emas, balki bir nechta fanlarning yondashuvlari, usullari va konsepsiyalarini qo'shib hal qilinishi. Multidistsiplinar tadqiqotning bir nechta fanlar bir muammoni o'z nuqtai nazaridan o'rganishi, lekin ularning o'zaro chuqur integratsiyaga kirmasligi. Interdistsiplinar tadqiqotning fanlararo chuqur hamkorlik, metod va konsepsiyalar almashuvi orqali yangi ilmiy yechim yaratishi. Transdistsiplinar tadqiqotning faqat fanlar bilan cheklanmay, amaliyotchi mutaxassislar, siyosatchilar va jamiyat vakillari hamkorlikda murakkab muammolarni hal qilishi.

## **9-mavzu. Ilmiy tadqiqotning turlari.**

Ilmiy tadqiqotlarning tiplari: fundamental tadqiqotlar, amaliy tadqiqotlar, tadqiqotchilik loyiha-konstruktorlik ishlanmalar, innovatsion tadqiqotlar, yoshlarning amaliy va fundamental tadqiqotlari. Ilmiy bilimning o'sish qonuniyatlari. Fanning "o'sish nuqtalari". Vorisiylik, ilmiy inqiloblar. Kumulyativizm, antikumulyativizm, verifikatsiya, falsifikatsiya. Normal fan. Prolefiratsiya.

## **10-mavzu. Ilmiy tadqiqotda axborot va axborot texnologiyalarining o'rni. Sun'iy intellektning ilmiy bilim rivojiga ta'siri.**

Bilimning informativligi mummosi. Axborot, bilim, ma'lumot tushunchalarining tahlili. Ijtimoiy va ilmiy axborot. Ilmiy axborot – ijtimoiy axborotning bilish faoliyatida foydalaniladigan alohida turi.

Informatika va informatizatsiya. Axborot kompyuter texnologiyalari va

yangicha fikrlash hamda bilish faoliyatning shakllantirish. Axborot texnologiyasini o'zlashtirishning ilmiy tadqiqot faoliyatiga ijobiy ta'siri. Axborotlashgan jamiyat konsepsiyasi. Axborotlashgan jamiyatda mehnat, shuningdek olim mehnati mazmunining o'zgarishi. Axborot inqilobi. Nanotexnologiyalar. Biometrik identifikatsiya qilish texnologiyasi

Sun'iy intellekt tushunchasi. Sun'iy intellektning ijobiy va salbiy jihatlari. Sun'iy intellect kirib borgan fan sohalari.

### **11-mavzu. Ilmiy tadqiqotni tashkil etish**

Sharq falsafasi va madaniyati mutaxassisligi bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish bosqichlari. Ilmiy tadqiqotga qo'yiladigan talablar. Muammoning dolzarbligini aniqlash. Muammoni shakllantirish. Tadqiqot mavzusining subyekti va predmeti.

Adabiyotlar va manbalar bilan ishlash. Bibliografiya tushunchasi. Elektron kutubxona va undan ilmiy tadqiqotni tashkil etishda foydalanish. Falsafiy matn bilan ishlashda germeneytik va komparativistik metodlardan foydalanishning ahamiyati.

Ilmiy tadqiqotni rasmiylashtirish va unga qo'yiladigan talablar.

### **12-mavzu. Olimning professional va ijtimoiy mas'uliyati**

Fan olimlar tomonidan amalga oshiriluvchi faoliyat turi sifatida. Ichki va tashqi determinatsiya. Erkinlik va ijtimoiy nazorat. Neytralizm va ijtimoiy mas'uliyat. Hozirgi zamon olimining portreti. Ilmiy ishda plogiat va uning salbiy oqibatlari.

«Ilm odamlari». Olimlarning uchrashuvlari va muloqotini ta'minlash shakllari. Intellektual elita va superintellektual elita nazariyasi. Ijtimoiy mas'uliyat tushunchasi va uning zaruriyati. Olimning ijtimoiy mas'uliyati insoniyatning tur sifatida saqlab qolishning bosh omili.

### **III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

“Ilmiy tadqiqot metodologiyasi” fani bo'yicha amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Fan bilishning maxsus shakli.
2. Ilmiy bilim va bilish faoliyati ijtimoiy-tarixiy hodisa va madaniyat elementi sifatida.

3. Kognitiv faoliyatning tuzilishi, uning ilmiy bilimdagi xususiyatlari. Ilmiy tadqiqotda ratsionallik va irratsionallik.
4. Ilmiy bilim shakllari va ularning ilmiy tadqiqot jarayonidagi ahamiyati.
5. Ilmiy bilim darajalari, usullari va tamoyillari.
6. Falsafiy germenevtika.
7. Tizimli yondashuv va sinergetika-fan metodologiyasining yangi paradigmalari.
8. Ilmiy tadqiqotda innovatsiya va novatsiya. Fanda fanlararo va transdisiplinar tadqiqotlar.
9. Ilmiy tadqiqotning turlari.
10. Ilmiy tadqiqotda axborot va axborot texnologiyalarining o'rni. Sun'iy intellektning ilmiy bilim rivojiga ta'siri.
11. Ilmiy tadqiqotni tashkil etish.
12. Olimning professional va ijtimoiy mas'uliyati.

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interfaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

#### IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

##### Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

- o'tilgan mavzuni chuqur o'rganishlari uchun darslik, o'quv materiallari bilan faol ishlash;
- ma'ruza, amaliy mashg'ulotlar va imtihonlarga oldindan tayyorgarlik ko'rish, vaqtdan unumli foydalanish;
- fan (modul)lar bo'yicha mustaqil ta'lim topshiriqlarini belgilangan muddatlarda taqdim etishi;
- mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishda plagiat (ko'chirmakashlik)ga yo'l qo'ymasligi;
- kichik guruhlarda hamkorlikdagi mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishda jamoaning umumiy maqsadiga mos harakat qilishi, o'ziga yuklatilgan vazifalarni o'z vaqtida bajarishi.

*Mustaqil ta'limni tashkil etishda fanning xususiyatini inobatga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:*

- mavzu yuzasidan tahliliy ma'lumot (esse) tayyorlash;
- badiiy-ijodiy ishni bajarish;
- kurs ishi (loyihasi)ni bajarish;

- aniq mavzu bo'yicha tahliliy taqdimot (prezentatsiya) tayyorlash;
- berilgan muammoni keng tahlil qilish, unga ta'rif va xulosalarni berish;
- amaliyotdagi mavjud muammoning yechimini topish, test, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash orqali loyihalar ishlash ko'nikmasini shakllantirish;
- ilmiy maqola, tezislar va ma'ruza tayyorlash;

**“Ilmiy tadqiqot metodologiyasi”** fanidan mustaqil ish sifatida quyidagi mavzulardan berilishi tavsiya etiladi:

1. Fanning ijtimoiy funksiyalari.
2. Fan rivojlanishining qonuniyatlari.
3. Falsafa tarixida fanlarning tasnifi masalasi.
4. Ilmiy bilishda vorisiylik va novatorlik.
5. Fanni rivojlantirish omillari va modellari.
6. Tabiiy va ijtimoiy-gumanitar fanlardagi ilmiy inqiloblarning xususiyatlari.
7. Ilmiy bilim shakllari.
8. Dalil - ilmiy tadqiqotning boshlanishi.
9. Ilmiy muammo va muammoli vaziyat.
10. Ilmiy tadqiqotda dalil, gipoteza (faraz), prognoz va intuitsiya.
11. Ilmiy tadqiqotda nazariyaning o'rni.
12. Ilmiy bilish dinamikasi.
13. Ilmiy bilim darajalari, usullari va tamoyillari.
14. K.Poppening bilish modeli.
15. T.Kun ilmiy inqiloblar haqida.
16. S.Tulminning evolyusion epistemologiyasi.
17. Fan falsafasining rivojida pozitivizmning roli.
18. Hozirgi davrning eng mashhur metodologik tamoyillari va yondashuvlari.
19. Zamonaviy fan metodologiyasida tizimli yondashuv.
20. Ijtimoiy-gumanitar bilimlarning xususiyatlari.
21. Falsafa bilim turi sifatida. Falsafiy fikr yuritish usullari.
22. Falsafiy matnning kontseptsiyasi va o'ziga xosligi.
23. Falsafiy matnni talqin qilish.
24. Sinergetika – fanning metodologik tamoyili sifatida.
25. Germenevtik g'oyalarning rivojlantirish tarixi.
26. Falsafiy germenevtikaning shakllanishi.
27. Ilmiy tadqiqotni tashkil etish.
28. Olimning ilmiy kashfiyotlarga mas'uliyati.
29. Axborot texnologoyalari va yangicha fikrlash hamda bilish faoliyatning shakllantirish.
30. Axborot texnologiyasini o'zlashtirishning ilmiy tadqiqot faoliyatiga ijobiy

	<p>ta'siri.</p> <p>31. Axborotlashgan jamiyat konsepsiyasi.</p> <p>32. Axborot inqilobi.</p> <p>33. Nanotexnologiyalarning ilmiy tadqiqotlar rivojidadagi roli.</p> <p>34. Biometrik identifikatsiya qilish texnologiyasi.</p> <p>35. Sun'iy intellektning ijobiy va salbiy jihatlarini.</p> <p>36. Sun'iy intellekt kirib borgan fan sohalari.</p> <p>Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan taqdimotlar, videoroliklar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.</p>
	<p><b>V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</b>  <b>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba bilishi kerak :</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• metodologiya, ilmiy tadqiqot metodologiyasi tushunchalari, ilmiy faoliyatning o'ziga xosligi, fan rivojining qonuniyatlari, ilmiy tadqiqotlarning tasnifi, ilm-fanni rivojlantirishning asosiy omillari, olimning professional va ijtimoiy mas'uliyati <i>haqida tasavvurga ega bo'lishi;</i></li> <li>• kognitiv faoliyatning tuzilishi, uning ilmiy bilimdagi xususiyatlarini, ilmiy bilim shakllari, darajalari, usullari va tamoyillarini, ijtimoiy-gumanitar bilimlarning xususiyatlarini, falsafiy fikr yuritish usullarini <i>bilishi va ulardan foydalana olishi ko'nikmalariga ega bo'lishi;</i></li> <li>• Sharq falsafasi va madaniyati mutaxassisligi bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni tashkil etishda muammoning dolzarbligini aniqlash, muammoni shakllantirish, uning yechimini topish maqsadida ilmiy bilish shakllari va usullarini aniqlash; falsafiy matn bilan ishlash <i>malakalariga ega bo'lishi kerak.</i></li> </ul>
4.	<p><b>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• ma'ruzalar;</li> <li>• interfaol keys-stadilar;</li> <li>• amaliy mashg'ulotlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);</li> <li>• guruhlarda ishlash;</li> <li>• taqdimotlarni qilish;</li> <li>• individual loyihalar;</li> <li>• jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.</li> </ul>
5.	<p><b>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</b></p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, mustaqil ta'lim bo'yicha hamda joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ish va/yoki og'zaki imtihonni topshirish.</p>

6.

**VIII. ASOSIY VA QO'SHIMCHA O'QUV ADABIYOTLAR HAMDA  
AXBOROT MANBALARI**

**Asosiy adabiyotlar**

1. Ikramova I.R. Falsafa va fan metodologiyasi. – Toshkent, 2024.
2. Shermuhamedova N. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi. Darslik. –T.: Universitet, 2015.
3. Беспалов А.М., Никитина И.В., Прудников М.М. Философия и методология науки. Электронное учебное пособие. Бийск: АГПУ им. В.М. Шукшина, 2018. (электронная книга).
4. Falsafa o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. (Mual.gur. Izzetova E.M., Ahmedova S.D., Sulaymonov J.B., Ikramova I.R., Jo'rayev Sh.S.) –T.: TDSHI. 2020.

**Qo'shimcha adabiyotlar**

5. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. –T.: O'zbekiston, 2021.
6. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda: o'quv qo'llanma / Sh. Mirziyoyev. – 2021. 323 (575.1).
7. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –T.: O'zbekiston, 2016.
8. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi.–T.: O'zbekiston, 2017.
9. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. –T.: 2017.
10. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. –T.: O'zbekiston, 2017.
11. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. –T.: O'zbekiston, 2018.
12. Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. –T.:O'zbekiston, 2019.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi.[www.press-service.uz/uz/lists/view/1371](http://www.press-service.uz/uz/lists/view/1371)
14. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi// <https://www.lex.uz>
15. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O'zbekistondagi Islom madaniyati markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida// [www.press-service.uz/uz/lists/view/688](http://www.press-service.uz/uz/lists/view/688)
16. Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha muhim vazifalar belgilab berildi (Besh

tashabbus//<http://www.uza.uz/oz/politics/prezident-yeshlar-manaviyatini-yuksaltirish-ularning-b-sh-va-19-03-2019>

17. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat–yengilmas kuch. –T.:Ma'naviyat, 2008.
18. Karimov I.A. O'rtta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojidadagi roli va ahamiyati. – T.: O'zbekiston, 2014.
9. Pulatova D.A. Mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. – T.: TDSHI, 2016.
20. Po'latova D., Fayzixo'jayeva D. Mantiq. –T.: TDSHI, 2013.
21. Шипунова О.Д. История и методология науки. Учебное пособие. СПб.: Изд.ПУ, 2016.
22. Po'latova D.A. Falsafa. Falsafa asoslarining mantiqan-tizimlashgan amaliy kursi. O'quv qo'llanma. –T.: TDSHI, 2011.
23. Po'latova D. Qodirov M. va boshq. Falsafa tarixi: Sharq falsafasi. O'quv qo'llanma. –T.: TDSHI, 2015.
24. Po'latova D., Ruzmatova G. G'arb falsafasi tarixi. Darslik. –T.: Effekt-D, 2021.
25. Po'latova D. , Fayzixo'jayeva D. Mantiq. –T.: TDSHI, 2013.
26. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta'limda innovasion texnologiyalar. O'quv qo'llanma. –T.: Iste'dod, 2008.
27. Shermuxamedova N. A. Falsafani o'qitish metodikasi. Elektron darslik. – T.: UzMU, 2012.
28. Philosophi a school of freedom. Teaching philosophi and learning to philosophize. UNESCO Publishing, 2007. Printed in France. ISBN 978-92-3-104070-2.
29. Кузьменко Г.Н., Отюцкий Г.П. Философия и методология науки. Учебное пособие. – М.:ЮРФЙТ. 2016.

#### Axborot manbalari

1. [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
2. [www.gov.uz](http://www.gov.uz).
3. [www.library.ziyonet.uz](http://www.library.ziyonet.uz).
4. [www.faylasuf.uz](http://www.faylasuf.uz).
5. [http://booksss.ru/filosofiya/Slovar\\_Philosof.rar](http://booksss.ru/filosofiya/Slovar_Philosof.rar)
6. <http://www.philosophy.ru> Библиотека Института философии.
7. [https://www.yandex.ru/search/?lr= Кузьменко Г.Н., Отюцкий Г.П. Философия и методология науки. Учебное пособие. – М.:ЮРФЙТ. 2016.](https://www.yandex.ru/search/?lr=Кузьменко%20Г.Н.,%20Отюцкий%20Г.П.%20Философия%20и%20методология%20науки.%20Учебное%20пособие.%20–%20М.:ЮРФЙТ.%202016.)
8. <http://znanium.com/bookread2.php?book=309109>. Ломачко О.М. Методика преподавания философии в вузах. Пособие к курсу. – Саратов, 2015.

	<p>9. <a href="http://znanium.com/bookread2.php?book=309109">http://znanium.com/bookread2.php?book=309109</a>. Иновационные подходы к проектированию основных образовательных программ по направлению подготовки высшего профессионального образования «Философия»/ Проектные разработки. – М.: МГУ, 2007.</p> <p>10. Научная библиотека МГУ. <a href="http://www.lib.msu.ru">http://www.lib.msu.ru</a>. rabochaya_tetrad_po_osno-vam_filosofii</p>
7.	<p>Fan dasturi “Sharq falsafasi va hermenevtika” kafedrasida ishlab chiqilgan va 20<u>25</u> - yil “<u>25</u>” <u>06</u> dagi “<u>20</u>”-sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan.</p> <p>Fan dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 20<u>25</u>-yil “<u>28</u>” <u>06</u> dagi “<u>11</u>”-sonli bayoni bilan tasdiqlangan</p>
8.	<p><b>Fan/modul uchun mas’ul:</b></p> <p>Ikramova I.R. – TDSHU, “Sharq falsafasi va hermenevtika” kafedrasida dotsenti, PhD, dotsent.</p>
9.	<p><b>Taqrizchilar:</b></p> <p>Izzetova E.M. – TDSHU, “Sharq falsafasi va hermenevtika” kafedrasida professori, falsafa fanlari doktori, professor;</p> <p>Tulenova K.J. – TDPU “Falsafa” kafedrasida professori, falsafa fanlari doktori, professor.</p>